

AJDODLAR MEROSI – TARBIYA MANBAYI: MA'RIFATPARVAR
JADIDLAR QARASHLARI

Ibragimova Manzura Maxmasiddiq qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: ibragimovamanzora@gmail.com

Tel: +998994838206

ORCID: 0009-0007-4206-6795

Mardonova Gusanam Damin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: @mardonovagulsanam945gmail.com

Tel: +998976610406

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlarining tarbiya borasidagi qarashlari va ularning intellektual merosi bugungi kun yoshlari tarbiyasida qanchalik dolzarb ekanligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalarining axloq, ta'lim va milliy o'zlikni anglash borasidagi g'oyalari o'rganilgan. Maqolada "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari misolida "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamat, yo najot – yo halokat" g'oyasining zamonaviy pedagogikadagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, ajdodlar merosini o'rganish orqali yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik hissini shakllantirish bo'yicha xulosalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, Turkiston, usuli jadid, sho'ro hukumati, pedagogika, xulq, millat, jadid, axloq.*

Abstract: *This article analyzes the views of Jadid enlighteners on education and the relevance of their intellectual heritage in the upbringing of today's youth. The research examines the ideas of prominent Jadid figures such as Abdulla Avloniy, Mahmudkhoja Behbudi, and Abdurauf Fitrat regarding ethics, education, and national identity. Using the work "Turkiy Guliston yoxud Akhloq" as an example, the article highlights the significance of the idea "Education for us is a matter of life or death, salvation or destruction" in modern pedagogy. Furthermore, conclusions are drawn on fostering national pride and patriotism in the younger generation through the study of ancestral heritage.*

Keywords: *Upbringing, Turkestan, usuli jadid, soviet government, pedagogy, character, nation, jadid, ethics.*

Аннотация: *В данной статье анализируются педагогические взгляды джадидов-просветителей и актуальность их интеллектуального наследия в воспитании современной молодежи. В исследовании изучаются идеи таких видных представителей джадидизма, как Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди и Абдурауф Фитрат, касающиеся этики, образования и национального самосознания. На примере*

произведения «Тюркский Гулистан или мораль» освещается роль идеи «Воспитание для нас – вопрос жизни или смерти, спасения или гибели» в современной педагогике. Также изложены выводы по формированию у молодежи чувства национальной гордости и патриотизма через изучение наследия предков.

Ключевые слова: *воспитание, Туркестан, усули джадид, советское правительство, педагогика, характер, нация, джадид, мораль*

Kirish

"Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir" Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir" Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida vujudga kelgan jadidchilik harakati milliy tarbiya va ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Jadidlarning qarashlari bo'yicha, millatning najoti va taraqqiyoti bevosita zamonaviy bilim hamda yuksak axloq bilan bog'liq edi. Shu maqsadda ular an'anaviy ta'lim tizimidan farqli ravishda "Usuli jadid" (yangi usul) maktablariga asos soldilar. Ushbu maktablar shunchaki savod chiqarish maskani emas, balki millatni uyg'otish va ijtimoiy-siyosiy ongni shakllantirish markazlari bo'lib xizmat qildi.

Jadid maktablari ta'lim jarayoniga o'sha davr uchun mutlaqo yangi bo'lgan sinf-dars tizimini olib kirdi. O'quvchilar yoshi va bilim darajasiga qarab sinflarga ajratildi, dars xonalari esa ilk bor parta, qora taxta va geografik xaritalar bilan jihozlandi. Ayniqsa, savod chiqarishda joriy etilgan "Usuli sotiy" (tovush usuli) inqilobiy yangilik bo'ldi. Harflarni murakkab nomlar bilan emas, balki tovushlar orqali o'rgatish metodikasi o'quvchilarga bir necha yil o'rniga bir necha oy ichida ravon o'qish va yozish imkonini berdi. Ma'rifatparvarlar ta'lim dasturiga diniy ilmlar bilan bir qatorda matematika, geografiya, tabiatshunoslik va tarix fanlarini kiritib, dunyoviy bilimlarning o'zaro uyg'unligini ta'minladilar.

Jadidlarning pedagogik konsepsiyasida tarbiya va axloq masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [1] degan mashhur shiori bu harakatning ma'naviy o'zagini tashkil etadi. Ular tarbiyani to'rt qismga: jismoniy, fikriy, axloqiy va ma'naviy tarbiyaga bo'lib o'rganganlar. Masalan, "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari orqali yoshlarda vatanparvarlik, halollik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish metodikasi yaratilgan. Jadidlar sog'lom tanada sog'lom ruh bo'lishini uqtirib, bolalarning jismoniy rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratishgan.

Asosiy qism

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi tufayli Tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli hisobga olinmadi.[2]

Sho'rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy ob'yekti bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

Har bir millatning o'z ma'naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma'naviy qiyofasini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. O'zbek adabiyotida bunday asarlar juda ko'p. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim",

"Turkiy guliston yoxud axloq", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darsliklari ham xarakterli bo'lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslangan.[3]

Abdulla Avloniy o'z ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida axloqni yuqori o'ringa qo'yadi va uni barcha xulqlar majmui deb ta'kidlaydi. Xulq esa, kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Inson fitrati pok tug'iladi, unda yomonliklarga havas bo'lmaydi, o'sib-ulg'ayishi jarayonidagi oilaviy muhit, ta'limiy sharoit, jamiyat ta'sirida fe'l-atvori shakllanib, o'zgarib boraveradi. Avloniy qarashlariga ko'ra, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya ijtimoiy jarayon. Har bir insonning tarbiyasiga butun jamiyat mas'ul bo'lishi lozim. Xalqlar, millatlarning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga chambarchas bog'liq bo'ladi.

Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yuqoridagi kabi bir qancha insoniylik sifat va fazilatlarini xususida mulohaza yuritadi. "Yaxshi xulqlar" va "yomon xulqlar" turkumiga ajratgan holda inson ma'naviy qiyofasining rangin manzaralariga sayqal beradi. Shu jihatlardan ham, bugungi o'zbek pedagogikasi, didaktikasini Abdulla Avloniyning samarali mehnatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.[4] Ushbu xususiyatlariga ko'ra adib ijodiy merosi ta'lim bosqichlarida uzviylik va uzluksizlik asosida o'qitiladi. Alloma o'zining pedagogik qarashlarida ham, badiiy-publitsistik asarlarida ham, avvalo, insonning ruhiy-ma'naviy kamolotini tarbiyalashni ustuvor deb biladi. "Turkiy guliston yoxud axloq" risolasida Avloniy, shuningdek, har bir kishi o'z vazifasiga sadoqat bilan kirishishi, agar u murabbiy bo'lsa, o'z shogirdlarining ko'ngliga ma'rifat ishqini solishi, xalq o'rtasiga ma'rifat tarqatishi zarurligini ta'kidlaydi, ilm-hunar egallashning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi: "Hozirgi zamonda maqsadga yetmak, o'z millatiga xizmat qilmoq, xalqg'a maqbul bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila o'lchanadur. ...Mol topmoqning eng barakatli yo'llari: hunarmandchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdur. Bularning har biriga ham bu zamonamizda bilim lozimdur... Ameriqoliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq olurlar. Yevropaliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz osiyoliklar, xususan turkistonliklar, dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz"[5], deya Avloniy kuyunchaklik bilan "hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmoq uchun ilm va ma'rifatni egallashimiz kerak", degan shiorni o'rta tashlaydi.

Xulosa Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, jadid ma'rifatparvarlarining, xususan, buyuk pedagog Abdulla Avloniyning tarbiya borasidagi qarashlari milliy

pedagogikamizning oltin poydevori hisoblanadi. Avloniy shaxs kamolotida tarbiyani eng oliy mezon darajasiga ko'tarib, uni "yo hayot – yo mamat" masalasi sifatida talqin etgan ilk mutafakkirlardan biridir. Uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari nafaqat o'sha davr uchun, balki bugungi zamonaviy ta'lim tizimi uchun ham metodologik dastur bo'lib xizmat qiladi.

Avloniy tarbiya tushunchasini to'rt qismga – badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi va til tarbiyasiga ajratar ekan, barkamol shaxsni shakllantirishda ularning uzviy bog'liqligini ilmiy asoslab berdi. Uning fikricha, fikri ochiq, tanasi sog'lom va axloqi pok insongina millatning haqiqiy tayanchi bo'la oladi. Bu g'oyalar hozirgi kunda umumta'lim maktablarida o'tilayotgan "Tarbiya" fanining kontseptual asosini tashkil etadi.

Shunday qilib, jadidlarning, xususan Avloniyning "yangi usul" maktablari orqali amalga oshirgan islohotlari o'zbek xalqining milliy o'zligini saqlab qolish va intellektual salohiyatini yuksaltirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan ushbu pedagogik xazina bugungi yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'urur va zamonaviy ilm-fanga muhabbat ruhida tarbiyalashda eng samarali va dolzarb manba bo'lib qolaveradi. Jadidlar boshlab bergan ma'rifat yo'li bugungi kunda Yangi O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar bilan hamohang ravishda o'zining mantiqiy davomini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy asarlari majmuasi.
2. Qosimov B. "Milliy uyg'onish", T., "Sharq", 2004 yil, 53-bet.
3. Davlatxon Rustamova Toyirjon Qizi, Soliyeva Sarvinozxon Azizjon Qizi PEDAGOG FAOLIYATIDA JADID MA'RIFATPARVARLARI MEROSINI O'RGANISHNING AHAMIYATI // SAI. 2024. №Special Issue 26.
4. Pardayeva K. Abdulla Avloniy asarlari uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining metodik manbasi sifatida. Xalq ta'limi o'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2020 5-son (sentabr-oktabr)
5. Umumiy o'rta ta'limda Abdulla Avloniy ijodini o'rganishning ma'rifiy-estetik ahamiyati. Xalq ta'limi jurnali. 3-son (may-iyun) 2022. Toshkent